



ISSN 2181-1709 (P)
ISSN 2181-1717 (E)

2024/№10

**TA'LIM VA
INNOVATSION
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH**

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



№10/2024
ОКТЯБР

Muassis:

Buxoro davlat universiteti
Fan va ta'lim MChJ

Bosh muharrir: Ma'murov
Bahodir Baxshulloyevich, Buxoro
davlat pedagogika instituti rektori

Jamoatchilik kengashi raisi:
Xamidov Obidjon Xafizovich,
Buxoro davlat universiteti rektori

Mas'ul kotib: Akramova
Gulbahor Renatovna

Texnik muxarrir: Davronov
Ismoil Ergashevich

Tahririyat manzili:
Buxoro shahar,
Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy

E-mail:
eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:
www.interscience.uz

Jurnal OAK Rayosatining 2021
yil 30 sentyabrdagi 306/6-son
Qarori bilan **PEDAGOGIKA,**
PSIXOLOGIYA,
FILOLOGIYA, TARIX
FANLARI bo'yicha falsafa
doktori (PhD) va fan doktori
(DSc) ilmiy darajasiga
talabgorlarning dissertatsiya
ishlari yuzasidan asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsisi etilgan ilmiy nashrlar
ruyxatiga kiritilgan

Bosishga ruxsat etildi:

10.10.2024 y.

Qog'oz bichimi 60x84 1/8.
b/t.12,5.

Buyurtma raqami №1010
«FAN VA TA'LIM» nashriyotida
chop etildi. Buxoro shahar
<https://interscience.uz/> saytida
joylashtirildi

Jurnal 28.07.2021 yilda 9305

raqami bilan O'zbekiston
Ommaviy axborot vositalari davlat
ro'yxatidan o'tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va
2 oyda 1 marta chop etildi.
2021 yil noyabr oyidan boshlab
har oyda 1 marta o'zbek, rus va
ingliz tillarida chop etiladi

«Ta'lim va innovatsion
tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-
metodik jurnalidan ko'chirib
bosish tahririyatning roziligi bilan
amalg oshiriladi

Maqolada keltirilgan faktlarning
to'g'riligi uchun muallif
mas'uldir

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rahmonov K. J. "Globallashuv sharoitida o'zbekistonning turkiya bilan aloqalari" mavzusini o'qitishda innovasion yondashuv	8
--	---

Рашидов О. Р. Туркистон АССРда маҳаллийлаштириш сиёсати	13
---	----

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Akramova S.R. O'zbek tili leksikasining tarixiy etimologik qatlamlarini o'rganishning ahamiyati	18
---	----

Ashurova S. E. Leksikografiyaning paydo bo'lishi va shakllanish jarayoni	21
--	----

Avazova N.O. Anvar Obidjon ijodida to'rtlik shakliga yangicha poetik munosabat ifodasi	26
--	----

Абдулхакимова Н. Т. Формирование речевой компетенции студентов технических специальностей при изучении русского языка как иностранного	30
--	----

Bozorova M. A. Intertekstuallikni amalga oshirish vositasi sifatida allyuziya	35
---	----

Doniyorova M. T. "Sabot ul-ojizin" asarida munojotlar tasviri va badiyati	39
---	----

Safarova N. O. Zamonaviy latifachilik va uning o'ziga xos tomonlari	45
---	----

Suvonov Z. N. N.D.Golev va boshqalarning metodologiyaga doir qarashlari tahlili (badiiy matnning filologik ekspertizasi misolida)	53
---	----

Усманова К. Х. Исследования инновационных подходов к преподаванию английского языка в нефилологических направлениях	57
---	----

Хакбердиева С. Ф. Ментальная репрезентация концептов «Муж» и «Отец» в разноструктурных языках на материале паремий	63
--	----

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Safarova R. Abdulla Avloniyning tarbiya konsepsiyasi	69
--	----

Abdullaeva F. S. Methodology for developing professional communicative competence in foreign languages for students of tourism	73
--	----

Abdullayeva F. N. O'qish savodxonligi darslarida badiiy asarlarni kreativ topshiriqlar asosida tahlil qilish metodikasi	77
---	----

Abdullayeva F. N., Hamroqulova Sh.H. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida matn tahlilida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.	82
---	----

ANVAR OBIDJON IJODIDA TO'RTLIK SHAKLIGA YANGICHA POETIK MUNOSABAT IFODASI

Avazova Nilufar Okiljon qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti o'zbek va rus tillari kafedrasi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada Anvar Obidjonning to'rtlik shaklida yozilgan ijod namunalari tahlilga tortilgan. "To'rtqavatlar" deb nomlangan bunday she'rlarning mazmuni-mohiyati, ularda qo'llanilgan badiiy san'atlar adabiyotshunoslik qoidalari nuqtayi nazaridan izohlab berilgan. Zamonaviy o'zbek she'riyatida Anvar Obidjonning bu shaklda yozilgan she'rlarining yangicha nom bilan atalishi bir yangilik ekanligi alohida ta'kidlangan.

Kalit so'z: she'riy janrlar, she'riy shakllar, uchchanoq, so'taruboiy, to'rtqavatlar, ignabarg, novatorlik.

ВЫРАЖЕНИЕ НОВОГО ПОЭТИЧЕСКОГО ОТНОШЕНИЯ К ФОРМЕ ЧЕТВЕРОСТИШИЯ В ТВОРЧЕСТВЕ АНВАРА АБИДЖАНА

Авазова Нулуфар Окилжон кизи

Преподаватель кафедры узбекского и русского языков Бухарского государственного педагогического института

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируются образцы творчества Анвара Абиджана, написанные в форме четверостишия. Содержание таких стихотворений, так называемых "четверостиший", художественные приемы, использованные в них, трактуются с точки зрения правил литературоведения. В современной узбекской поэзии особо подчеркивается, что новое название стихотворений Анвара Абиджана, написанных в этой форме, является новшеством.

Ключевые слова: стихотворные жанры, стихотворные формы, трилистник, сукулент, четырехлистник, хвойник, новаторство.

EXPRESSION OF A NEW POETIC ATTITUDE TO THE FORM OF QUADRANT IN THE CREATION OF ANVAR OBIDJAN

Avazova Nilufar Okiljon kizi

Teacher of the Department of Uzbek and Russian Languages, Bukhara State Pedagogical Institute

ABSTRACT. In this article, examples of Anvar Obidjon's creativity written in the form of fours are analyzed. The essence of such poems called «four-story» and the artistic arts used in them are explained from the point of view of the rules of literary studies. In modern Uzbek poetry, it is emphasized that the new name of Anvar Obidjon's poems written in this form is a novelty.

Keywords: poetic genres, poetic forms, three-story, three-story, four-story, billet, innovation.

KIRISH. She'riyat sharqda asrlar davomida adabiyotning asosiy bo'lagi sifatida yashagani bois ham uning ildizlari g'oyatda chuqur ekanligini bilamiz. Jahon adabiyotining bir qismi hisoblangan o'zbek she'riyati haqida esa dastlabki ma'lumotlar Mahmud Koshg'ariyning «Devon-u lug'otit turk» asari orqali beriladi. Mazkur asardagi ma'lumotlar lirik shakllar va janrlar, ularning arxaiik terminlari haqida ilk bor bildirilgan fikrlar sifatida alohida ahamiyatga egadir. Lekin bugungi o'zbek poeziyasi kechagi she'riyat emas, balki o'zining ko'pgina, xususan, shakliy-mazmuniy mundarijasiga ko'ra yangilangan she'riyatdir. Shu bilan birga, bugungi she'riyat kechagi she'riyatdan uzilib qolgan alohida hodisa ham emas. Ular o'rtasida uzviylik davom etib kelyapti. Zamonaviy o'zbek she'riyati mumtoz va yangi o'zbek she'riyatining eng yaxshi an'alarini davom ettirgani holda jahon adabiyoti sarchashmalaridan ham suv ichayapti. Adabiyot o'tgan asrda dunyoga sotsial realizm tuynugi orqali qaragan bo'lsa, bugun uning tafakkuri juda keng. Ayni mana shu keng maydon – badiiy

tafakkur erkinligi hozirgi zamon poeziyasini – Mustaqillik davri o'zbek poeziyasini vujudga keltirayotgan bosh omildir. Shunga ko'ra, har tomonlama boy she'riyatimizga nazar tashlab, uning bag'rida barcha tamoyillarning izini ko'rish mumkin: realizm, neorealizm, romantizm, simbolizm kabilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi o'zbek she'riyatida an'anaviylik va novatorlik kabi ikki yo'nalishning izlari ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Ammo bir narsa aniqki, bu yo'nalishlar doimo bir-biriga ta'sir qilib, bir-birini boyitib, to'ldirib boradi. Shunga ko'ra, deyarli hamma ijodkorlarda turli adabiy yo'nalishlar ohanglarini uchratish mumkin va bu tabiiydir. Chunonchi, zabardast shoir va yozuvchi Anvar Obidjonning takrorlanmas she'rlarida an'ana va novatorlikka xos xususiyatlar bir paytning o'zida baravar yashaydi. So'nggi yillar o'zbek she'riyatida kechgan uslubiy shakliy izlanishlarni poetik shakllardagi yangilanishlar shoir ijodida ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Anvar Obidjon mustaqillik davrida yangi badiiy shakllar va janrlar yaratish uchun jiddiy izlandi. Haqiqatan, keyingi yillar o'zbek she'riyatida Anvar Obidjonning "ignabarg", "uchchanoq", "uchpaxsa", deb nomlanuvchi birlik, ikkilik, uchlik, oltilik singari badiiy shakllar yuzaga keldi.

Anvar Obidjon – tabiatan yumoristik shoir. U hayotda kuzatgan turli nobop holatlarni, qusurlarni ramz va timsollar vositasida yumorga boyitib, badiiy aks ettiradi. Qisqa va lo'nda fikrlarni jam etgan birliklar shu jihatdan bugungi she'riyatimizdagi novatorlik hisoblanadi. Jumladan, "Qiyaysan-da insofli bo'lsam". Ushbu ignabargda kinoya bor. Binobarin, insofli, diyonatli odamlarga yashash hamisha qiyin bo'lgan. Yuqoridagi misrada shunga ishora bor. Zamonaviy she'riyatimizdagi yangi shakllar va janrlar haqidagi fikrimizni davom ettirar ekanmiz, beixtiyor shoir ijodida uchraydigan "so'taruboiylar" nomi ostida e'lon qilingan she'rlar yodga tushadi. Bu so'z "so'ta + ruboiy" qismlaridan tarkib topgan qo'shma so'zdir. So'ta – makkajo'xorining donli yoki doni olingandan keyin qolgan o'zagi, to'pmevasini anglatadi. Sheva tilida esa "kaltak" ma'nosida keladi. Shular inobatga olinsa, Anvar Obidjonning bunday she'rlarida hajviy-tanqidiy ruh ustuvorlik qilishi kuzatiladi:

Dutor chertay ding'ir-ding'ir,
O'yna yorim, qing'ir-sing'ir.
Bir kunda bir ichib kelsam,
Qilma hadeb ming'ir-ming'ir. [4;24]

Bu she'r a-a-b-a tarzida ruboiy kabi qofiyalangan. Aslida hajviy-yumoristik mazmun "ding'ir-ding'ir", "qing'ir-sing'ir", "ming'ir-ming'ir" kabi salbiy bo'yoqqa ega bo'lgan takror taqlid so'zlarga yuklangan. Aslida ichkilik biror insonga yaxshilik keltirmaydi. Shoir bu satrlari orqali ichgan erga hech nima ta'sir qilmaydi, hattoki xotining behuda javrashkari ham kor qilmaydi, demoqchi.

Garchi janjalda balanddir,
Dod solishda zo'r talantdir.
Qo'shnilar bilmas, xotincham –
Xudo urg'on simuvlantdir [4;24]

Mazkur satirik-yumoristik ruhda yozilgan she'r ham a-a-b-a tarzida qofiyalangan. Qofiyadosh so'zlari: balanddir, talantdir, simuvlantdir. Yuqoridagi satrlarda ham oilaviy muammolar davom ettirilgan. Har qanday ayol erining ichib uyga kelishini yoqtirmaydi. Erkak tilidan aytilgan misralarda ham xotinning shu holatdagi noroziligi aks etgan. Shoir so'nggi misrada "semuvlant" degan yangi so'z qo'llagan. Bu so'z o'zbek tilining izohli lug'atida berilmagan. Ijodkor o'zlashma so'zlardan ham foydalangan. Shunga ko'ra, misramizda qo'llangan ushbu so'z bahonachi, ayyor ma'nosida kelyapti. Lirik qahramon o'z jufti halolini oldin foydalanilmagan yangi bir sifatlar bilan ta'rif-u tavsif qilmoqda.

Kel, oshna, qahringdan uzat,
Yov qo'psa, jahlingdan uzat.
Ortsa lek johilligim,
Axliqqa aqlingdan uzat. [4;25]

Bu misralarda axloqiy mazmun yetakchilik qiladi. "Qahr", "jahl", "aql" so'zlari qofiyadosh bo'lishi bilan birga, shoir aytmoqchi bo'lgan poetik fikrni ham ochib berishga xizmat qilgan.

Ya'ni yov bostirib kelgan vaqtda unga javob qaytarish maqsadida jahl kerak bo'ladi. Lekin jahl ham haddan ortsa, aqlga ehtiyoj seziladi.. Shoir "axliq" deganda, oqliq so'zini nazarda tutyapti. O'zbek tilining izohli lug'atida bu so'zga shunday ta'rif berilgan: Oqliq – qatiq qilishda sutga qo'shiladigan tomizg'i. Matn mazmunidan kelib chiqib, lirik qahramon aqli kamayganda uni ko'paytirish uchun o'rtog'idan oqliq uzatishini so'rayapti, deyish mumkin.

O'y-xayolga itob bo'ldim,
She'r yozarda shitob bo'ldim.
Edim balki yomon odam,
Vale mixdek kitob bo'ldim [4;25]

Shoir yuqoridagi misralarda "itob", "shitob", "kitob" singari arabcha so'zlarni qofiyadosh so'z sifatida qo'llagan. Itob arabchada qahr, g'azab, qiynoq, shitob esa "oshiqish, shoshilish" ma'nolarini beradi. Bunda dastlabki misradagi "itob" so'zi "o'y-xayolga berildim" mazmunida kelgan. Keyingi satrda "she'r yozishga oshiqdim, shoshildim", so'nggi ikki misrada esa "yomon bo'lsam-da, yozganlarim "mixdek kitob" – mustahkam bir asar bo'ldi, demoqchi. Ko'rinadiki, bu so'taruboiyda ham aqliy-intellektual fikr kuchi ustuvorlik qiladi.

Yuqorida tahlil etganimiz, A.Obidjonning "so'taruboiylar" nomi ostida bergan she'rlari mumtoz ohanglarni ham yodga soladi. Ya'niki, shoir ijodidagi so'taruboiylar mumtoz adabiyotimizdagi ruboiylar singari aruz vaznida yozilgan. Demak, Anvar Obidjon so'taruboiylari ham vazni ham qofiya shakli jihatdan o'zbek mumtoz adabiyotshunosligimizdagi ruboiylarga mos kelsa ham, nega shoir uni so'taruboiy deb nomladi ekan? Bizning fikrimizcha, bu shoirning kamtarligidan bir nishonadir. Ya'niki, ijodkor o'z ruboiylarini Navoiy yoki Bobur kabi adabiyot daholarining ruboiylariga tenglashtirmaydi. O'z ruboiylarini ularning ijod mahsullari qatoriga qo'shishga ozroq iymnadi va o'zining ruboiylarini so'taruboiy degan yangicha atama bilan nomlaydi. Ruboiyning eng quyi darajasida turuvchi bir janr, ruboiyning past bir turini nazarda tutyapti shoir. Bu shoirning yana bir bor novatorligidan darakdir. Albatta, bu bizning shaxsiy qarashlarimiz. Shular bilan bir qatorda ijodkor ruboiylarida hajviy ruh ustunligi ham ko'zga tashlanadi. A.Obidjon tabiatan yumorga, kulgiga moyil bo'lgani uchun shunday she'rlariga ham hazil, kinoya mazmunini singdira olgan.

Men uxlasam nafas rostlar qalamim,
Dilim tirnar tushimda zo'r alamim:
Ichishda teng kelsam-da ming ulfatga,
Yozishda teng kelmadim bir Gulmatga [4;25]

Shoir bu to'rtqavatlisini o'zining lirik qahramoni Kulkuliy tilidan yozgan. Anvar Obidjon ijodini sevuvchi va uning she'rlari bilan yaqindan tanish bo'lgan kitobxonlar uning "Bezgakshamol 1" to'plami usta Gulmat tilidan yozilgan hajviy g'azallardan tashkil topganini biladi. Yuqorida berilgan to'rtlik esa "Bezgakshamol 2" to'plamidan olingan va bu to'plamga kiruvchi hajviy she'rlar, o'z navbatida Usta Gulmatga chevara bo'lgan shoir Kulkuliy tilidan aytilgan. Lirik qahramon ushbu misralarda o'z qalamini faqat qalam sohibi uxlaganda dam olishi mumkinligini, shu darajda ko'p ijod qilsa-da, ammo uning ijodkorligi bobokaloni usta Gulmatning so'z qo'llash mahoratiga teng kelolmasligini aytib o'tadi. Bu o'rinda ham Anvar Obidjonni naqadar kamtar bir ekanligini ko'ramiz.

Anvar Obidjonning to'rtqavatlilari ham istiqlool yillari she'riyatidagi badiiy izlanishlardan biri sifatida alohida ahamiyatga egadir. Nomiga muvofiq ravishda shoir to'rtliklarining har bir misrasidan yangi fikr va obraz topish mumkin.

Anvar Obidjon individual ijodiy izlanishlarida "to'rtqavatlilar" nomi bilan bergan to'rtlik she'rlari ham muhim o'rin tutadi. Bu she'rlar ham mohiyatan so'taruboiylarga yaqin. Ya'ni ularda ham hajviy-yumoristik ruh etakchi qiladi. Faqat "qavat" so'zi ma'nosidan kelib chiqilsa, poetik ma'no qavatma-qavat yuzaga chiqadi. Ularning aksariyati a-a-b-a shaklida qofiyalangan.

Asta keldim dalda birla yaxshi gapga och bo'lib,
Yora aytay hasratimni ko'nglima tilmoch bo'lib.
Barcha qiz xil-xil taom-u, sevgilim yolg'iz palov,
Qaqranib tursam netar men yonida qirmoch bo'lib? [4;23]

Lirik qahramon – oshiq hamisha ma'shuqasidan yaxshi gap kutadi. Shoir ko'ngilni tilmoch – tarjimonga qiyoslaydi. Chunki oshiq qalb o'zining dil izhorlarini sevgilisiga yetkazuvchi ko'ngildir. Yoki qizlarni turli xil taomlarga qiyoslasa, suyuklisini taomlar shohi palovga o'xshatadi. O'zi esa shu palovning qirmochi bo'lishga ham tayyor. Zero, bu tashbeh-u sifatlashlar mumtoz she'riyatdagi tasvirlarni yodga soladi. O'ziga xosligi shundaki, ma'shuqaning palovga, oshiqning qirmochga o'xshatilishi novatirlikdir.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, biz tahlil qilayotgan ijodkor ijodida uchraydigan bugungi o'zbek poeziyasida yangi shakl deya qaralayotgan so'taruboiy yoki to'rtqavatlilarni she'riyatimizdagi alohida bir yangi janr deyolmaymiz chunki bunday shakllar faqatgina Anvar Obidjon ijodida uchraydi. Shoir ijodida uchraydigan so'ta ruboiy va to'rtqavatlilar zamonaviy o'zbek she'riyatining alohida yangi bir janri bo'lishi uchun bunday shakllar yuqorida ta'kidlaganimizdek, ma'lum davr doirasida ko'pgina ijodkorlar ijodida uchrashi kerak. Shu holatda biz bunday shakllarni janr deb atay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T.: O'zbekiston, 2002. – B.503.

Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. Т.: Шарк, 2008. – Б.221.

Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. Т.: Шарк, 2008. – Б.222.

Obidjon A. Bezgakshamol - 2. – T.: Шарк, 2003.

Latipova, S. (2024). TARIXIY ROMANDA DARVESH OBRAZI (YOZUVCHI JORA FOZILNING “AYRILIQ OSTONASI” ROMANI ASOSIDA). Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 3(1), 58-61.

Avazova N., Jalilova O. ULUG'BEK HAMDAMNING “OTA” ROMANIDAGI AYRIM OBRAZLAR TAVSIFI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 20-24.

Bakhronovna, R. G. (2024). Irony as a Type of Movement in Artistic Literature. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(4), 231-235.

Bakhronovna, R. G., & Saidaxmedovna, O. R. D. (2024). Renewal of Artistic Movements in Modern Poetry. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(4), 186-192.

Jo'rayeva L. ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI KIYIM NOMLARINING LINGVOPOETIK VA LINGVOKULTROLOGIK TADQIQI //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 124-127.